

O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligida
2003 yil 24 dekabrda
1294-son bilan
«RO'YXATGA OLINGAN»

O'zbekiston Respublikasi
Davlat patent idorasi direktorining
2003 yil 11 noyabrdagi
66-son buyrug'i bilan
«TASDIQLANGAN»

PATENT VAKILLARINI ATTESTATSIYADAN VA RO'YXATDAN O'TKAZISH QOIDALARI

Ushbu O'zbekiston Respublikasi Patent vakillarini attestatsiyadan va ro'yxatdan o'tkazish qoidalari (bundan buyon matnda - Qoidalar) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 1 iyulidagi «Davlat patent idorasining Apellatsiya kengashi to'g'risidagi nizom va Patent vakillari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risidagi» 298-son Qarori bilan tasdiqlangan Patent vakillari to'g'risidagi nizomga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasida patent vakillarini attestatsiyadan va ro'yxatdan o'tkazish tartibini belgilaydi.

Qisqartirishlar ro'yxati

Patent idorasi – O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi

Nizom – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2003 yil 1 iyulidagi «Davlat patent idorasining Apellatsiya kengashi to'g'risidagi nizom va Patent vakillari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risidagi» 298-son Qarori bilan tasdiqlangan Patent vakillari to'g'risidagi nizom

Apellatsiya komissiyasi – Patent idorasining Apellatsiya komissiyasi

Malaka berish komissiyasi – Patent idorasining malaka berish komissiyasi

Nomzod – patent vakili faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga talabgor shaxs

Reyestr – O'zbekiston Respublikasi patent vakillari reyestri

1-§. Malaka berish komissiyasi va Apellatsiya komissiyasi

faoliyatini tashkil qilish

1. Patent vakillarini attestatsiyadan va ro'yxatdan o'tkazish Patent idorasi tomonidan amalga oshiriladi.

Patent vakillarini attestatsiyadan o'tkazish taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish va patent vakili sifatida ro'yxatdan o'tkazishga talabgor bo'lgan nomzodlarning o'zları arizada ko'rsatgan ixtisosliklarni hisobga olgan holda, kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorligini aniqlash uchun o'tkaziladigan malakani sinash imtihoni shaklida amalga oshiriladi.

2. Patent vakillarini attestatsiyadan o'tkazish uchun Patent idorasi tomonidan faoliyati ushbu Qoidalarga muvofiq amalga oshiriladigan Malaka berish komissiyasi va Apellatsiya komissiyasi tuziladi.

3. Malaka berish komissiyasi:

- a) malakani sinash imtihonini o'tkazish tartibini tasdiqlaydi;
- b) imtihon topshiriqlarini tasdiqlaydi;

v) imtihon oluvchilarnii tayinlaydi va imtihon o'tkazishni tashkil qiladi;

g) malaka sinash imtihoniga kiritish haqida qaror qabul qiladi;

d) nomzodlarni patent vakili sifatida attestatsiyadan o'tkazish yoki attestatsiyadan o'tkazishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

4. Malaka berish komissiyasi Patent idorasi direktorining buyrug'i bilan idoraning malakali va tajribali xodimlaridan, va shuningdek mustaqil olimlar va intellektual mulk obyektlari sohasidagi mutaxassislardan tuziladi.

5. Malaka berish komissiyasi ishiga Patent idorasi direktorining buyrug'i bilan tayinlangan Malaka berish komissiyasi raisi rahbarlik qiladi.

6. Malaka berish komissiyasi raisi yo'qligida uning majburiyatlari vaqtincha Malaka berish komissiyasi raisining o'rinnbosariga yuklatiladi.

7. Malaka berish komissiyasi majlislarida bayonnomma olib boriladi va Malaka berish komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolanadi.

8. Malaka berish komissiyasi qarorlari majlisda ishtirok etayotgan a'zolarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan holda raisning ovozi hal qiluvchi kuchga ega.

9. Malaka berish komissiyasi qarorlari yozma shaklda tuziladi, Malaka berish komissiyasi raisi va a'zolari tomonidan imzolanadi.

10. Malaka berish komissiyasi a'zosi qabul qilingan qarordan norozi bo'lgan holda o'zining alohida fikrini bayon qilishi mumkin.

11. Malaka berish komissiyasi qarorlari ustidan Apellatsiya komissiyasiga shikoyat berilishi mumkin.

12. Apellatsiya komissiyasi nomzodning Malaka berish komissiyasi qarorlari ustidan bergen shikoyatlarini, va shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning patent vakilining noqonuniy harakatlari yoki Patent vakkillari to'g'risidagi nizomni buzadigan harakatlari ustidan bergen shikoyatlarini ko'rib chiqadi.

13. Apellatsiya komissiyasi Malaka berish komissiyasi tuzilgan tartibda tuziladi.

14. Apellatsiya komissiyasi qarorlari majlisda ishtirok etayotgan a'zolarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan holda raisning ovozi hal qiluvchi kuchga ega.

15. Apellatsiya komissiyasi qarorlari yozma shaklda tuziladi, Apellatsiya komissiyasi raisi va a'zolari tomonidan imzolanadi.

16. Apellatsiya komissiyasi a'zosi qabul qilingan qarordan norozi bo'lgan holda o'zining alohida fikrini bayon qilishi mumkin.

17. Apellatsiya komissiyasi qarorlari ustidan sudga shikoyat berish mumkin.

2-§. Hujjatlarni qabul qilish

18. Nomzod o'zini attestatsiyaga kiritishni so'rab Malaka berish komissiyasiga ushbu Qoidalarga ilova qilingan 1-ilovada keltirilgan shaklda ariza yuboradi.

19. Ariza davlat yoki rus tilida beriladi.

20. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

a) oliy ma'lumot haqidagi diplom nusxasi;

b) intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni muhofazalash va himoya qilish sohasida yoki intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish sohasida advokat sifatida zarur bo'lgan ish stoji mayjudligini tasdiqlaydigan hujjatlar (mehnat daftarchasi yoki yakka tartibdagi mehnat

shartnomasining nusxasi yoxud Ishga qabul qilish va bo'shatish haqidagi buyruqlardan ko'chirmalar nusxasi);

v) attestatsiya uchun belgilangan to'lov to'langani haqidagi hujjat;

g) nomzodning ixtiyoriga ko'ra uning malakasini ko'rsatadigan boshqa hujjatlar.

21. Patent vakilligiga nomzodlarni attestatsiyadan o'tkazishga kiritishni rad etish nomzod O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'limgan holda yoki Patent idorasi va unga qarashli tashkilotlarning xodimi bo'lgan holda, va shuningdek ushbu Qoidalarning 20-bandiga a) – v) kichik bandlarida belgilangan hujjatlar mavjud bo'limgan holda amalga oshiriladi.

22. Ariza va unga ilova qilingan hujjatlar kelib tushgan sanadan e'tiboran o'n kunlik muddat ichida nomzodga attestatsiyaga kiritilganligi yoki attestatsiyaga kiritish rad etilganligi haqida yozma bildirishnoma yuboriladi.

3-§. Attestatsiyani o'tkazish

23. Malaka sinash imtihoni attestatsiyaga kiritilganlik haqidagi bildirishnoma jo'natilgan sanadan e'tiboran ikki oydan kechiktirilmagan muddat ichida o'tkaziladi.

24. Nomzodga attestatsiya o'tkaziladigan kundan oldin o'n kalendar kunidan kechikmagan muddatda attestatsiyani o'tkazish joyi, sanasi va vaqtini haqida xabar beriladi.

25. Nomzodlar O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasporti yoki shaxsini tasdiqlaydigan boshqa hujjatni ko'rsatgan holda imtihon topshiradilar.

26. Nomzod imtihon davomida Patent idorasi tomonidan tasdiqlangan dasturga muvofiq intellektual mulk huquqlarini muhofazalash va himoya qilish sohasida faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlari va tajribasi majudligini ko'rsatishi lozim. Imtihon topshiriqlari nomzod tomonidan arizada ko'rsatilgan bo'lajak faoliyatidagi ixtisosliklarni hisobga olgan holda tuziladi.

27. Malaka berish komissiyasi imtihon oluvchilar qo'ygan baholar asosida malaka sinash imtihonining qoniqarli yoki qoniqarsiz natijasi va nomzodni patent vakili sifatida attestatsiyadan o'tkazish yoki attestatsiyadan o'tkazishni rad etish haqida qaror chiqaradi.

28. Malaka berish komissiyasining qarori ikki nusxada tuziladi, bittasi attestatsiya ish jildida qoldiriladi, ikkinchisi nomzodga beriladi.

29. Malaka berish komissiyasi tomonidan chiqarilgan attestatsiyadan o'tkazishni rad etish haqida qaror, shu jumladan malaka sinash imtihoniga kiritishni rad etish haqidagi qarorning ustidan qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran uch oy ichida Apellatsiya komissiyasiga shikoyat berilishi mumkin.

Apellatsiya komissiyasi shikoyat bo'yicha u kelib tushgan sanadan e'tiboran bir oy ichida qaror qabul qiladi.

4-§. Patent vakilini ro'yxatdan o'tkazish

30. Patent vakilini ro'yxatdan o'tkazish va uni reyestrga kiritish quyidagi hujjatlar taqdim etilgan holda amalga oshiriladi:

a) attestatsiyadan o'tkazilganlik haqidagi qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran bir yil ichida berilishi mumkin bo'lgan va ushbu Qoidalarning 2-ilovasida keltirilgan shakldagi patent vakili sifatida ro'yxatdan o'tkazish haqidagi ariza;

b) attestatsiyadan o'tkazilganlik haqidagi qaror nusxasi;

v) ro'yxatdan o'tkazish, ro'yxatdan o'tkazilganlik haqidagi ma'lumotlarni e'lon qilish va patent vakili guvohnomasini berish uchun belgilangan to'lov to'langani haqidagi to'lov hujjati.

31. Patent idorasini ariza topshirilgan sanadan e'tiboran bir oy ichida patent vakilini reyestrda ro'yxatdan o'tkazadi, ushbu Qoidalarning 3-ilovasida keltirilgan shakldagi patent vakili ro'yxatdan o'tkazilganligi haqidagi guvohnoma beradi va Patent idorasining rasmiy axborotnomasida ro'yxatdan o'tkazilganlik haqidagi ma'lumotlarni e'lon qiladi.

Patent idorasini ro'yxatdan o'tkazish haqidagi ariza attestatsiyadan o'tmagan shaxs tomonidan topshirilgan, ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan to'lov to'lanmagan, va shuningdek Patent vakillari to'g'risidagi nizomning 3-5-bandlariga muvofiq patent vakilini ro'yxatdan o'tkazishga to'sqinlik qiladigan holatlar yuzaga kelgan hollarda ro'yxatdan o'tkazishni rad etadi.

32. Reyestrda yozuv quyidagi ma'lumotlarni ichiga oladi:

a) guvohnoma raqami sifatida yuritiladigan ro'yxat raqami;

b) patent vakilining ismi-familiyasi;

v) doimiy yashash joyi;

g) Malaka berish komissiyasi qarorining sanasi va raqami;

d) arizada patent vakili tomonidan ko'rsatilgan faoliyatdagi ixtisosliklar;

ye) patent vakili yollanib ishlaganligi haqidagi ma'lumotlar;

j) yozishma uchun manzil (O'zbekiston Respublikasi hududida), va shuningdek agar bo'lsa, telefon, faks, e-mail raqamlari, yozishma olib boriladigan tillar;

z) patent vakili ro'yxatdan o'tkazilgan sana;

i) guvohnoma berilganligi yoki yuborilganligi haqidagi malumotlar.

Reyestrga boshqa ma'lumotlar ham kiritilishi mumkin.

33. Patent vakili sifatida ro'yxatdan o'tkazilmagan yoki reyestrda chiqarilgan shaxs o'z faoliyatida «patent vakili» maqomidan foydalanishi mumkin emas.

34. Guvohnoma patent vakiliga shaxsan topshiriladi yoki buyurtmali pochta jo'natmasi orqali yuboriladi.

5-§. Patent vakillari haqidagi ma'lumotlarni nashr qilish

35. Patent vakilini ro'yxatdan o'tkazish haqidagi ma'lumotlarni e'lon qilish reyestrda ro'yxatdan o'tkazilgan taqdirda amalga oshiriladi.

36. Patent idorasini tomonidan rasmiy axborotnomada quyidagi ma'lumotlar e'lon qilinadi:

a) ismi-familiyasi;

- b) ro'yxat raqami;
- v) ish joyi, lavozimi;
- g) yozishma uchun manzil;
- d) arizada patent vakili tomonidan ko'rsatilgan faoliyat ixtisosligi;
- ye) yozishma olib boriladigan tillar.
- j) patent vakili yollanib ishlaganligi haqidagi ma'lumotlar.

37. Patent idorasi tomonidan rasmiy axborotnomada, shuningdek patent vakili ro'yxatdan o'tkazilishiga oid o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlar, shu jumladan patent vakili faoliyatida aniqlangan qoidabuzarlik holatlarini to'xtatishga qaratilgan choralar haqidagi qaydlar, patent vakillarini reyestrda chiqarish haqidagi ma'lumotlar va h. k. e'lon qilinadi.

38. Istalgan shaxs reyestrdaqи ma'lumotlar bilan tanishish huquqiga ega.